

- D) Yetim bolaning yordami bilan
- 3.Cho'lda bo'ri nimani uchratibdi?
- A) Ayiq
- B) Quyon
- C) Ot**
- D) Xo'roz
-

To'g'ri yoki Noto'g'ri topshirig'i

Savol 1:

Boyo'g'li qarg'ani qizil rangga bo'yab qo'ydi.

- ☒ To'g'ri
- ☐ Noto'g'ri

Savol 2:"Yo'lbars bilan tulki" ertagida ular do'st edi.

- ☒ To'g'ri
- ☐ Noto'g'ri

Savol 3:"O'rmondagi ziyofat" da sher oshxona ochibdi.

- ☒ To'g'ri
- ☐ Noto'g'ri

Baholash:

- O'quvchilar nazorat darsida berilgan topshiriqlarga ko'ra baholanadi.
- Har bir berilgan javoblar, amaliy topshiriq natijalari ko'rib chiqiladi.



Uyga vazifa: O'tilgan mavzularni takrorlash.

11-mavzu: Biz buyuklar avlodimiz

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Biz buyuklar avlodimiz" matni mazmuni bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: Ilk uygʻonish davridagi ajdodlarimiz haqida maʼlumotlar berish orqali ularga hurmat hissini uygʻotish, ilm olishga ragʻbat ruhini oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv oʻyinlar

Dars jihozi: olim ajdodlarimiz rasmlari

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va oʻtilganlarni takrorlash):



- Oʻquvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi eʼlon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- Mavzuga qiziqtirish bosqichi: *Harflardan soʻz hosil qiling.*

JODAD

- Oʻtilganlarni takrorlash: Oʻquvchilar tuzib kelgan ertaklarini oʻqib berishadi.

2.Asosiy qism:

☒ **Amaliy topshiriq.** Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?



Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. *Rasmda kimlar tasvirlangan?*
2. *Bu insonlar haqida nima deya olasiz?*

Oʻquvchilarning fikri tinglanadi va toʻldiriladi.

Mavzuni tushuntirish. “Davom ettiring” mashqi.

Buyuk sarkarda...

1018 yulduzning joylashuvini jadvalga kiritgan...

Nimometrni yaratgan...

☒ Matn ustida ishlash. “Bir butunga yig‘amiz” mashqi

Hikoya matnidagi gaplar alohida-alohida qilib kesib beriladi. O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayonida o‘z gapining o‘rnini aniqlashadi va o‘rnidan turib xattaxta yoniga navbatma-navbat chiqadi. Audiomatn tugagach o‘quvchilar o‘zlari hosil qilgan matnni o‘qib berishadi.

 Darslikdagi QR-kod orqali “Biz buyuklar avlodimiz” audiomatni tinglanadi.

Biz buyuklar avlodimiz

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o‘z zamonasidan o‘zib ketgan daholar yurti bo‘lib kelgan. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy kabi ko‘plab allomalarimiz o‘zlarining jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bilan ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan va ilk uyg‘onish davrini yaratgan.

Al-Xorazmiy — Xorazmda tavallud topgan buyuk mutafakkir, matematik olimdir. Bobomiz 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlarining yozilishini batafsil bayon qilgan. “0” raqami yordamida katta sonlarni hosil qilgan. “Sonlarni ifodalashda hech qachon “nol”ni unutmang”, aks holda hisob-kitobda adashib ketasiz, deb ogohlantiradi. Xorazmiy to‘rt amaldan foydalanish qoidalarini asarlarida yozib qoldirgan. Xorazmiy kashf etgan matematik nazariyani amaliyotga tatbiq qilish orqali texnik taraqqiyotga erishildi.

Imom al-Buxoriy Buxoroda tavallud topgan. U islom olamining yirik mutafakkiri, hadis ilmining sultonidir. Buxoriy umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan, U 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) deb nomlangan 4 jilddan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi

boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir.

Abu Rayhon Beruniy Xorazmda dunyoga kelgan. Nihoyatda ziyrak va tirishqoq bola bo'lgan. Keyinchalik shoh Ma'mun saroyida Xorazmda yashagan al Xorazmiy, ibn Sino kabi taniqli olimlar jamlangan akademiyani boshqardi. Beruniy dunyo fanida hayratomuz natijalarni qo'lga kiritgan. Beruniyning birinchi bo'lib fanda Yer sayyorasi dumaloq ekanligini, u o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanishini ilmiy asoslab bergan. Yerning tortishish kuchini o'rgangan. Yer shari xaritasini chizgan, globusni ham birinchilardan bo'lib yaratgan. Alloma arab, fors, yunon, suriy, hatto o'ta murakkab bo'lgan sanskrit tillarini ham yaxshi bilgan.

Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'laylik!

○ Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Vatanimizda yashab o'tgan allomalardan kimlarni bilasiz?
2. Ilk uyg'onish davri deganda nimani tushundingiz?
3. Al-Xorazmiy bobomiz haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?
4. Hadis ilmining sultoni kim?
5. Abu Rayhon Beruniy haqida bilganlaringizni so'zlab bering.

Audiomatnda ilk uyg'onish davrida yashagan allomalardan kimlarning nomi tilga olinganligi topiladi.

Ibn Sino

Imom Buxoriy

Amir Temur

Mirzo Ulug'bek

Ahmad Farg'oniy

**Abu Rayhon
Beruniy**

Xorazmiy

Mirzo Bobur

Mantiqiy tafakkurni rivojlantiramiz: “Men kimman” mashqi.

Ma'lumotlar o'qiladi va qaysi allomaga tegishli ekani aytiladi.

1. Birinchi bo'lib fanda Yer sayyorasi dumaloq ekanligini, u o'z o'qi atrofida va quyosh atrofida aylanishini ilmiy asoslab bergan. Yerning tortishish kuchini o'rgangan.

2. U to'rt amaldan foydalanish qoidalarini asarlarida yozib qoldirgan.

3. Buxoroda tavallud topgan islom olamining yirik mutafakkiri, hadis ilmining sultonidir. Umr bo'yi hadislarni to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan.

4. Yer shari xaritasini chizgan, globusni ham birinchilardan bo'lib yaratgan. Alloma arab, fors, yunon, suriy, hatto o'ta murakkab bo'lgan sanskrit tillarini ham yaxshi bilgan.

5. Xorazmda tavallud topgan buyuk mutafakkir, matematik olimdir. Bobomiz 0,1, 2,3, 4,5, 6,7, 8,9 raqamlarining yozilishini batafsil bayon qilgan. “0” raqami yordamida katta sonlarni hosil qilgan.

O'quvchilarga allomalarimizning aytgan hikmatli so'zlaridan tarqatmalar berish tavsiya qilinadi. Hikmatli so'zlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Hikmatli so'zlar – o'tkir mazmunli ibora, pand-nasihat, o'git. Hikmatli so'zlar — bizga mualliflari kim ekanligi ma'lum bo'lgan maqol. Maqol esa mualliflari bizga noma'lum bo'lgan hikmatli so'zlardir.

Namuna sifatida : Abu Rayhon Beruniyning hikmatli so'zlari


Yolg'on doim rostdan yengiladi. U xuddi suv yuzasidagi ko'pikdek yo'q bo'lib ketadi.

Yaxshi xulq yaxshilikning alomatidir.

Ilm har narsadan yuqori, hech narsa undan yuqori bo'la olmaydi. Ega bo'linadigan narsalarning eng sharaflisi ilmdir.

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi. Berilgan yo'nalish bo'yicha jadvaldagi gapni o'qing va yozing.

										
	I	Y	U	N	D	O	D	H	G	A
	B	U	K	A	J	M	L	A	R	M
	Y	A	L	O'	O	L	B	I	S	U
	L	I	K	B	D	V	A	M	O	N

Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'laylik!

“Adashgan harflar” mashqi.

Harflarni o'z o'rniga to'g'ri joylashtirib Abu Rayhon Beruniy qayerda tavallud topgani bilib olinadi.(Xorazm)

3.Darsni yakunlash va baholash:

“BBB” mashqi. Fikrni yakunlang.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman

 **Uyga vazifa:** Allomalardan birini tanlab u haqda ma'lumot topib yozing.

12-mavzu: Buyuk sarkarda

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni “Amir Temur va chumoli” rivoyati bilan tanishtirish.